



VOQELIKNING EPIK BAYONI VA LIRIK IFODASI

Jo‘rayev Islomjon Mamasodikovich,
FarDU ingliz filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207213>

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma” memuar asari muallifining so‘z san’atkori sifatidagi obrazi, ijodiy jarayonga munosabati, voqelikni ham epik, ham lirik ifodalashi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Memuar asar, badiiy komponent, epik bayon, lirik ifoda, estetik ta’sir.

“Boburnoma” ko‘p asrlardan buyon turli soha vakillarining diqqatini tortib kelayotgan qimmatli ma’lumotlar manbai. Shu bilan birga, hali hanuzgacha kitobxonlarning qalbidan munosib o‘rin olib kelayotgan bebaho adabiy obidadir. Buning sabablaridan biri unda tarix’iy voqea-hodisalarning qiziqarli epik bayoni bilan lirik kechinmalarning mutanosib uyg‘unlikda kelishidir. Quyida biz ana shunday holatlardan ayrimlariga murojaat qilamiz.

Bobur ijodini g‘urbat motivlarisiz, g‘ariblik nolalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ko‘pchilik tadqiqotchilar buni Afg‘oniston va Hindistondagi hayoti bilan bog‘laydilar. Fikrimizcha, bu unchalik to‘g‘ri emas. Boburning bu mavzudagi she‘rlari hali vatandaligidayoq boshlangan. Bobur tushunchasida, kindik qoni to‘kilgan, keyinchalik o‘zi hukmdor bo‘lgan Andijonning qo‘ldan ketishi (1498) vatanjudolikning, “jaloj vatan bo‘lmoq”ning boshlanishi bo‘lgan. Masalan, “Boburnoma”dan ham tafsilotlari bilan o‘rin olgan quyidagi ruboiysi u Toshkentga – tog‘asining huzuriga kelganida yaratilgan (1501-yil):

*Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatta kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikta shod o‘lmadi hech
G‘urbatta sevunmas emish, albatta, kishi. [1:90]*

Shoir ona vatanidan butkul uzilganidan so‘ng bu motivlar yanada konkret tus oladi. Xususan, Hindistonda ekanligida unga ona yurtidan tuhfa qilib keltirilgan qovunni o‘z qo‘li bilan so‘yar ekan, achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kkanligini yozib qoldirgan. [1:345] Hayotidagi ushbu ta’sirli hodisa quyidagi misralarda ham o‘z aksini topadi:

*Qovun birla uzumning hajrida ko‘nglumda g‘am har su,
Oqar suvning firoqidin ko‘zumdin har dam oqar suv.*



“Boburnoma”dan o‘rin olgan ushbu misralarda hasbihollik xususiyati o‘ta bo‘rtib turishi, lirik qahramon va muallif shaxsiyati deyarli birlashib ketishi Bobur uslubiga xos asosiy belgilardan biridir. Biz ba‘zan uning lirik qahramoni timsolida shoirning o‘zini ko‘rib turganday bo‘lamiz. She‘rlaridagi ba‘zi lavhalar “Boburnoma”dagi ayrim voqea-hodisalarning lirik tasviridek tuyuladi. Masalan, Bobur Hindistondalik paytida ulkan janglardan biri oldidan mayni tark qilib, boshqalarni ham bunga da‘vat etadi. Ko‘p yillar davomida muntazam may ichib kelgan Bobur uchun bu ancha og‘ir va mashaqqatli bo‘lganligini uning o‘zi ham “Boburnoma”da e‘tirof etgan.

Ruboiylaridan birida shu mazmuni ko‘ramiz:

*May tarkini qilg‘ali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimniyu hayrondurmen.
El barcha pushaymon bo‘luru tavba qilur,
Men tavba qilibmenu pushaymondurmen.*

“Boburnoma”da muallifning may ichishdan tavba qilishi, bu unga oson kechmaganligi “may xumoridan ba‘zan yig‘lash darajasiga yetganligi” ochiq-oydin hikoya qilinadi. “Filvoqe bu o‘tgan ikki yilda chog‘ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g‘oyat edi, andoqkim, chog‘ir ishtiyoqidin borlar yig‘lamoq sarhadiga yetar edim.” [1:330]

Bobur lirikasidagi aksariyat she‘rlar hayot voqeligi bilan hamohang ravishda, biror voqea-hodisa ta‘siri ostida yaratilgan. Gap shundaki, shoir o‘zining “Boburnoma” asarida ba‘zi she‘rlarining yaratilish tarixi, yozilgan joyini ham ko‘rsatib ketadi. Masalan, 909-hijriy, 1503-1504-melodiy yilda Bobur o‘z qo‘shini bilan Qobuldan Hindiston sari yo‘l oladi. Shu yili Hayit bayrami bilan Navro‘z bayrami deyarli bir kunga to‘g‘ri keladi. Qo‘shin va unga hamrohlik qilayotgan odamlar dala-dashtda lola terishib, bayram kayfiyatida yurganlarida shoir o‘zining “Yangi oy yor yuzi birla” deb boshlanuvchi g‘azalini yaratadi. Bu g‘azal bir qarashda bayram madhiyasidek tuyuladi. Ammo shoir lirik qahramonining aytishicha, chin bayram yangi oynigina emas, balki sevikli yor yuzini ko‘rmak, visol nash‘asini surmak bilan bo‘ladi. Aks holda bayram shodiyonasi ko‘ngilga sig‘adimi?

*Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar,
Menga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g‘amlar.*

G‘azalning keyingi baytlari yor vasfi hamda bahor faslining ta‘rifi bilan uyg‘unlashgan holda davom etadi.



Shoir g‘azal maqta’sida yana Hayit hamda Navro‘z bayramlari haqida so‘z yuritib, quyidagi lirik xulosaga keladi:

Yuzi navro‘ziyu vasli iydin Bobur g‘animat tut,

Ki mundin yaxshi bo‘lmas bo‘lsa yuz navro‘z bayramlar. [1:136]

Zahiriddin Muhammad Boburning “Charxning men ko‘rmagan” deb boshlanuvchi eng mashhur g‘azallaridan biri ham hayotiy voqelik bilan bog‘liqdir. 909-hijriy, 1506-1507-melodiy yillar voqealari hikoyasida “Boburnoma” muallifi Qobuldan Xurosonga kelganligini aytadi. Maqsad Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng qo‘sh hokimiyat tuzib, mamlakatni boshqarayotgan Badiuzzamon hamda Muzaffar mirzolar bilan umumiy g‘anim bo‘lgan Shayboniylarga qarshi ittifoq tuzish edi. Ammo bir-birlari bilan ham ittifoq tuza olmaydigan bu shahzodalar Bobur bilan ham bir fikr va to‘xtamga kela olmaydilar. Boburshoh noumid holda Qobulga qaytadi. Yo‘l tog‘ orqali o‘tganligi uchun qattiq qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning ustiga tinimsiz yoqqan qor ularni yo‘ldan adashtiradi. Nihoyat bir g‘orda Bobur o‘z odamlari bilan jon saqlaydi. Muvaffaqiyatsizliklardan, yo‘l mashaqqatidan tushkunlikka tushgan shoir shu yerda quyidagi g‘azalini yozadi:

Charxning men ko‘rmagan javru jafosi qoldimu,

Xasta ko‘nglum ko‘rmagan dardu balosi qoldimu.

...Ey ko‘ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,

Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu. [1:174]

Bu g‘azalda shoirning faqat yo‘l azobini emas, balki umuman turmush uqubatlarini chekayotgandagi og‘ir kayfiyati o‘z aksini topgan. Ham ma’naviy, ham jismoniy iztiroblarni to‘lasicha tortgan lirik qahramon o‘zining xasta ko‘ngli hamma dardu balolarni ko‘rganligi, shuning uchun u narigi dunyoni tilab qolganini aytadi. Chunki, tangri haqqi, uning uchun bu dunyoning hech bir safosi qolmadi.

Ushbu kichik bir g‘azal bir dunyo tuyg‘ularni, ichki kechinmalarni o‘z ichiga oladi. Bu tuyg‘ular o‘zining haqqoniyligi va hayotiyliги bilan ajralib turadi. Ular kundalik hayot ko‘rinishlarining shoir qalbida tug‘dirgan g‘ulg‘ulalari ta’sirida yuzaga kelganlar.

Peyzaj lirikasi deb yuritiluvchi tabiat tasviri haqidagi she’rlar ham Bobur she’riyatida ko‘pchilikni tashkil etadi. “Boburnoma” asari tufayli biz ularning ayrimlarini qachon va qayerda yaratilganini ham bilib olishimiz mumkin. 913-hijriy, 1506-1507-melodiy yillarning ko‘klamida Bobur xos va yaqin kishilari bilan Qobul atrofida dashtlarga lola sayliga chiqadi. Atrofni qoplagan maysazor, rang-barang gullar shoirning ilhomini keltirib, quyidagicha boshlanuvchi she’rni yozadi:



*Sabzavu gullar bila jannat bo‘lur Qobul bahor,
Xossa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor. [1:182]*

Hamisha bo‘lganidek, tabiat go‘zalligi ham, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan voqealar ham, bayram va to‘ylar ham shoir qalbini to‘lasicha xursandchilik bilan qoplay olmaydi. Hamisha yoru diyori orzu va armonlari bilan yashaydigan shoirning lirik qahramoni she‘rlarga o‘z dardlarini ham qo‘shib kuylaydi. Xuddi ana shu lola sayli ta‘sirida yozilgan, shoir lirikasining eng go‘zal namunalaridan bo‘lgan quyidagi she‘r ham bundan mustasno emas:

*Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur.
...Boshidin evrulur armoni birla o‘ldum, ey Bobur,
Mening nash‘imni bori ul pari ko‘yidin aylondur! [2:26]*

Qobul viloyatining Boron, Gulbahor degan joylarida vujudga kelgan mazkur g‘azalning maqta‘si – oxirgi baytida shoirning bahor va yor ta‘rifi, vatan ishtiyoqi hamda mangu armonlari o‘zining otashin ifodasini topgan. Agar Boburning tiriklikda ona diyoriga qayta olmaganligi, qabri olis Hindistondan vatanga yaqin bo‘lgan Qobulga ko‘chirilganini esga olsak, she‘r nihoyasidagi misralar shoirning o‘ziga xos bashoratidek tuyuladi.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” shu tipdagi boshqa memuar asarlardan muallif obrazining yorqinligi, voqea-hodisalarning epik bayoniga lirik kechinmalar ham uyg‘unlashib ketganligi bilan alohida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. “Boburnoma”. T.: 1990.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. T.: 1994.
3. Haqqul I. Ruboiy. T.: “Fan”, 1976.
4. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: “Akademnashr”, 2010.